



## **O‘ZBEK URF-ODAT VA AN‘ANALARIDA XORAZM QUROQCHILIK SAN‘ATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI**

**Sharipov Abdumalik Axmadovich**

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*“Texnologik ta’lim kafedrası” o‘qituvchisi*

**Jiyanova Gulchiroy Husan qizi**

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*III- bosqich talabasi*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazm vohasi quroqchilik san‘atining o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq an‘analar va bugungi kundagi o‘zgarishlar borasida mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Hunarmandchilik, quroqchilik, quroq turlari, urf-odatlar, milliylik.*

Xalq hunarmandchiligi-bu har bir davlat aholisining o‘ziga xos milliyligini, urf-odat va an‘analarini o‘zida aks ettiradigan hunar turlari hisoblanadi. Har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlar va milliy an‘analari mavjud bo‘lib, ularni avloddan avlodga yetkazish muhim masala hisoblanadi. Hech qachon o‘z tarixini bilmasdan turib yorug‘ kelajakka qadam tashlab bo‘lmaydi.

Xalq hunarmandchiligi turlaridan biri bo‘lmish “Quroqchilik”ni quroqchilik sa’nati deyilishi ham bejizga emas. Quroq tikish ham bir san‘at ekanligiga quroqdan tikilgan buyumlarni ko‘rib amin bo‘lamiz. Quroq tikish jarayoni o‘rganayotgan kishining qobilayati sabr-toqatini yangilik yaratish sezgisini rivojlantiradi. Bu quroqchilik usulida tikilgan buyumlar yuqori didni, go‘zallikni, sabr-toqatlikni, mehnatsevarlikni talab qiladi.

Momolarimiz qadim zamonlarda iqtisodiy jihatdan og‘ir ahvolda bo‘lganliklari sababli oila a‘zolarining kiyim kechaklarini va uyda kerak bo‘ladigan buyumlarni masalan dasturxon, poyondozi, gilamcha, ko‘rpa, ko‘rpacha va yostiqlik jildlari kabilarini uylarida bor bo‘lgan materiallardan qurab tikishgan. Vaqtlar o‘tib bunday tikish usuli xaqq orasida ommalashib, urf-odat va an‘ana tusiga kira boshlagan. Bu kabi qo‘l mehnati doim qadrlanib kelingan. Bunday nozik did bilan chiroyli qilib, badiiy bezak hosil qilib tikilgan quroqlar barchani birdek o‘ziga jalb qiladi. Momolarimizning aytishlaricha turmush qurayotgan yosh kelin-kuyovlarning go‘shangalari, ko‘rpa, ko‘rpacha va yostiqlik jildlari kabilarini quroqdan tikishgan. Buning sababi ular shu quroq kabi aralashib, quralib o‘z-o‘zidan ko‘payishsin, kelgan kelinning qadami qutlug‘ bo‘lsin degan ma’noda qilingan va hozirgacha bu urf-odatlarimiz saqlanib qolgan.

O‘zbekistonda yangi chaqaloq tug‘ilganda beshikka belash urf odati bo‘lib bunda ham beshikning qo‘lbog‘lari, yostiqlikchalari, beshikyopqichlar ham quroq



usulida tikiladi. Buning ma'nosi bola sog'-salomat bo'lsin, har bir oilaga o'g'il, qiz farzandlar nasib qilsin va ularga ko'z tegmasin degan ma'noda qilinadi.

Dasturxonlarni quroqdan tikishganida ham ancha ma'no mujassam, ya'ni oilamiz dasturxonini doim to'kin sochin bo'lsin, topganimizni barakasini bersin degan ma'nolarda tikishadi.

Ajdodlarimizning ya'ni ota-bobolarimiz va momolarimizning qadimdan saqlanib kelayotgan milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini va kasb-hunarlarini o'rganish, yoshlar o'rtasida targ'ib qilish va yanada rivojlantirish avvalambor ota-onalar qolaversa biz kabi o'qituvchilar uchun ham qarz ham farzdir. O'quvchilarni kasb-hunar egallashlari nafaqat o'zlari uchun balki Vatanimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun ham juda muhimdir.

Xalq amaliy san'ati turlari ichida "quroqchilik" san'ati alohida o'ringa ega. Quroq – bu turli xildagi mato parchalarini bir birlariga mos qilib birlashtirib badiiy bezak tikish san'atidir. Quroq tikish uchun qimmatbaho asbob-uskuna yoki maxsus jihoz talab qilinmasligi bilan ham ahamiyatlidir. Bu ishni oddiy sharoitda ishtiyoqi bo'lgan har bitta ayolimiz bajara oladi. Bu kabi hunarlarni o'rganish bizga momolarimizdan qolgan ma'naviy meros sanaladi. Hunar egallash va kasbimizdan tashqari shu kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanish ham insonga zavq bag'ishlaydi ham ruhiy va jismoniy hordiq bo'ladi. Quroq tikish ko'pchilik uchun juda murakkab mayda ishdek tuyulganligi boiz hamma ham bu hunarni egallay olmaydi. Quroqni estetik did bilan milliylikni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirib tikilganlarini ko'rgan inson shu oddiygina mato qoldiqlari, igna va ip yordamida bunday mo'jizani yaratilganiga ishonishi qiyin bo'ladi.

Quroqchilik san'ati qadimgi momolarimizdan bizgacha yetib kelishining asosiy sabablaridan biri bu urf-odatlarimizning yaxshilikka yo'g'rilganligidandir. Quroq tikishni o'quvchilarga nafaqat dars jarayonida balki to'garak mashg'ulotlarida ham yaxshilab o'rgatishimiz kerak. Quroqchilikni o'rganish barobarida o'quvchilar ham hunarli bo'lib qolishadi, ham quroqni bichish tikish jarayonida milliyligimizni o'quvchilarga o'rgatib borishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari quroqni tikib bitkazguncha bo'ladigan jarayon bir qancha murakkab bo'lganligi sababli o'quvchilar sabr toqatlilik, mehnatsevarlik, estetik tarbiya, iqtisodiy tarbiya va ijodkorlik kabi xislatlarni o'rganishadi. Bundan tashqari eskirgan kiyimlarni qayerga qo'yishni bilmay qiynalmaysiz, uy batartib turishiga ham imkon bo'ladi, ham bunday chiroyli tikilgan buyumlar xonadonimizga ko'rk bag'ishlaydi.

Quroqroq tikishda asosan materiallarni xususiyatlariga e'tiborli bo'lish talab qilinadi. Chunki materiallar bir biriga mos kelmasa ishimiz o'xshamay qolishi mumkin. Quroqchilik san'atida ko'p jihatlarga e'tibor qaratilishi zarur:





- materiallarning turiga, bir biriga mos kelishiga;
- ranglar mosligiga;
- anodozalar o'Ichami aniqligiga;
- tikish jarayonidagi ketma-ketlikga;
- tikish uchun qoldirilgan joyidan aniqlik bilan tikishga;

O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida shu jumladan Xorazm viloyatida ham xalq amaliy san'atining "Quroqchilik" usuli bilan shug'ullanishadi.

Quroqchilikda har bitta rang har bitta shakl o'z ma'nolariga ega:

Kvadrat – abadiylik, mustahkamlik .

Quyosh – hayot ramzi.

Zirk guli (gulsafsar) osoyishtalik va uzoq umr.

Olma – muhabbat ramzi.

Xumo – baxt keltiruvchi qush.

Yashil rang – ona zamin.

Havo rang – musaffo osmon.

Masalan xorazmda sariq rang kam ishlatiladi chunki bu rang aralashsa to'y marosimlarida oqibati yaxshilik bo'lmaydi deyishadi momolarimiz.

Farzandlariga yoshlik chog'laridan hunar o'rgatib kelgan xalqimiz o'zining an'alaridan, urf-odatlaridan, turli ma'naviy meroslaridan unumli foydalanib keladi. Bugungi kunimizda ham xalqimizning an'alarini, usta va shogird asosida yoshlarimizga hunar o'rgatishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarini, akademik litsey va maktablarda yoshlarning kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish, ularga mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni berish uchun samarali mehnat qilinmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahimjonova. Gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik va uni o'qitish metodikasi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma) – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012. B.18.
2. Bulatov. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent, 1991. B.35.
3. Doniyorova Sh. Quroqchilik san'atining tarixiy an'analardagi o'rni.
4. Alimova, S. (2023). THE CONCEPT AND TASKS OF A MODERN MANAGEMENT SYSTEM ENTERPRISE PERSONNEL. Modern Science and Research, 2(12), 1085-1090.
5. Abidovna, A. S. (2023). MODERN TRENDS IN MANAGEMENT STRATEGIES AND THEIR APPLICATION IN COMMERCIAL BANKS. Gospodarka i Innowacje., 41, 326-332.



6. Alimova, S. A., & Nutfullaevna, K. M. (2022). STATE MANAGEMENT OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF ENTERPRISES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 75-80.
7. Alimova, S. A., & Shavkatovich, P. S. (2022). THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN ENSURING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 359-364.
8. Собирова, Д. А., & Саидназарова, Г. (2014). Социальный интеллект как инструмент коммуникативного и организационного взаимодействия. *Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири*, (2), 59-65.
9. Саидназарова, Г. Б. (2019). Навык педагогического влияния. *Вестник магистратуры*, (4-3 (91)), 80-81.

